ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA TA’LIM

Mavlyanov Muminjon Akramovich - GDPI “Aniq fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi,
Komiljonova Nigora Bahodir qizi - GDPI 1-kurs talabasi

Kalit so‘zlar: Zamonaviy texnalogiyalar, sun’iy intellekt, axborot texnalogiyalari, robototexnika, internet, onlayn ta’lim, elektron xizmatlar, aloqa vositalari, rivojlanish

Anotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy texnalogiyalarning inson hayotidagi o‘rni, ularning ta’lim, sog‘liqni saqlash, aloqa, qishloq xo‘jaligi va ishlab chiqarish sohalaridagi ahamiyati yoritilgan. Texnologiyalar yordamida hayot qanday yengillashgani, qanday qulayliklar yaratilgani, haqida fikr yuritiladi.

Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar dunyo bo‘ylab tez rivojlanmoqda. Ular odamlarning kundalik hayotini o‘zgartirib, turli sohalarda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Bu texnologiyalar ishlash uslublarini, muloqot qilishni va hatto odamlar o‘rtasidagimunosabatlarni ham o‘zgartirmoqda. Smartfonlar,kompyuterlar, internet, sun’iy intellekt va boshqa innovatsiyalar hayotimizning ajralmas qismiga allaqqachon aylanib ulgurgan desak ham mubolag‘a bo‘lmaydi.

Quyida zamonaviy texnologiyalarning ijobiy va salbiy ta’sirlarini ko‘rib chiqamiz. Zamonaviya texnologiyalar ta’lim jarayonini inqilobiy ravishda o‘zgartirdi. Interaktiv ta’lim platformalari, onlayn kurslar va raqamli resurslar o‘quvchilarga yangi bilimlarni o‘zlashtirishda keng imkoniyatlar yaratmoqda. Sun'iy intellekt va virtual haqiqat darslarni qiziqarli hamda samarali qiladi. Ularni qo‘llash bilan birga, o‘qituvchilarning roli ham o‘zgaradi, ularni ko‘proq murabbiy va qo‘llab-quvvatlovchi sifatida ko‘ramiz. Ta’limga zamonaviy yondashuvlar yordamida yoshlar uchun sifatli va innovatsion bilimlar taqdim etiladi.

Zamonaviy texnologiyalarning birinchi va eng muhim ijobiy jihatlaridan biri-kommunikatsiya sohasidagi o‘zgarishlardir. Internet va mobil telefonlar yordamida odamlar bir-birlari bilan tezva qulay muloqot qilmoqda. Masofaviy ishlash, o‘qish va yangiliklar olish osonlashdi. Onlain ta’lim, videokonferensiyalar, va ijtimoiy tarmoqlar biznes va shaxsiy hayotda ko‘plab o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi.

Texnologiyalar shuningdek, tibbiyot va ta’lim sohalarida katta yutuqlarga erishishga imkon yaratmoqda. Yangi tibbiy asbob-uskunalar, davolash usullari va sun’iy intellekt tibbiy tashxis qo‘yishda va davolashda yordam berishi mumkin. Masalan, robot-xirurglar jarrohlik amaliyotlarini yanada aniqroq va xavfsizroq qilishga yordam beradi. Yevropaning ko‘plab rivojlangan davlatlarida robotlar nozik jarrohlik ishlarini ham bajarishmoqda. Ta’lim sohasiga keladigan bo‘lsak, zamonaviy tehnologiyalar yordamida inson hohlagan adabiyotidan, darslik va qo‘llanmalaridan internet orqali qulay foydalanishmoqda. Bizning institutimiz ham aynan shu sohaga ixtisoslashtirilganligi institutimiz talabalariga ayni muddao hisoblanadi. Chunki zamonaviy kasblarning rivojlanishi bilan mamlakat ham beihtiyor rivojlanadi. Bizning yo‘nalishimiz uchun rivoji uchun qilinayotgan ishlar ham buni yaqqol misoli bo‘la

oladi. Ya’ni axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik markazlarini ochilishi yangi imkoniyatlar yaratilishiga olib keladi.

Zamonaviy texnologiyalarning salbiy ta’sirilarini ko‘ib chqadigan bo‘lsak, Internet va ijtimoiy tarmoqlar ba’zan odamlar o‘rtasidagi real munosabatlarni pasaytiradi. Ko‘p vaqtniekranga qarab o‘tkazish, jamiyatda yolg‘izlik va ruhiy salomatlik muammolariga olib kelishi mumkin. Shuningdek, ma’lumotlarning xavfsizligi va maxfiylik masalalari ham tobora muhim bo‘lib bormoqda. Hakerlar, shaxsiy ma’lumotlarni o‘g‘irlash va boshqakiberjinoyatlar xavfi kundan-kun ortib bormoqda.

Texnologiyalarni noto‘g‘ri qo‘llash, shu jumladan bolalar va o‘smirlarni noto‘g‘ri axborotdan himoya qilmaslik, ularga zarar yetkazishi mumkin. Ammo, yuqorida ta’kidlaganimdek, axborot xavfsizligiga qaratilayotgan e’tibor va uni rivojlanishi uchun qilinayotgan ishlar bunday noxush ishlar bo‘lmasligini ta’minlab beradi. Chunki yaratilayotgan sharoit va imkoniyatlardan foydalanib, tahsil olayotgan institutimizning ko‘plab iqtidorli talabalari kiber jinoyatlarga qarshi kurashishda katta natijalarga erishishlari mumkin.

Zamonaviy texnologiyalar hayotimizni osonlashtirishda, samarali ishlashda va yangi imkoniyatlar yaratishda katta rol o‘ynaydi.

Lekin ularning salbiy ta’sirlariga ham e’tibor berish zarur. Texnologiyalarni me’yorida va ehtiyotkorlik bilan ishlatish, ularning ijobiy tomonlaridan foydalangan holda salbiy ta’sirlaridan saqlanish mumkin. Buning uchun har bir insonning jiddiy va mas’uliyatli yondashuvi muhimdir.

Zamonaviya texnologiyalar ta’lim jarayonini inqilobiy o‘zgartirib, interaktiv platformalar va onlayn resurslar orqali o‘quvchilarga yangi bilimlarni o‘zlashtirishda keng imkoniyatlar yaratmoqda. Sun’iy intellekt va virtual haqiqat darslarni qiziqarli hamda samarali qiladi. O‘qituvchilarning roli murabbiy va qo‘llab-quvvatlovchi sifatida o‘zgaradi, bu esa yoshlar uchun sifatli va innovatsion ta’lim taqdim etishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. . Kruk B.I. Telekommunikatsion sistem seti. Sovremenne texnologi.M: Goryachaya liniya – Telekom 2003.

2. Juha Korhonen. Introduction to 3G Mobile Communications. Second Edition 2003.

3. http://www.cnews.ru/reviews/new/oblachnye servisy 2013/articles/zash chishchaem oblachnuyu sredu novye tehnologii bezopasnosti.

4. B. Walker Seidenberg M. P. Althoff. UMTS The Fundamentals. All of Communications Networks, Aachen University